

TEXNIK SUVLARDAN OQILONA FOYDALANISH KRETIRIYALARI

Arziyev Jamoliddin Meyliyevich

Annotatsiya: Mazkur maqolamda metal ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan texnik suvlarni foydalanish qobiliyatini uchta ko'rsatgich bilan ifodalashi, suv ta'minoti tizimini butkul texnik tugallanganligi haqida aylanma texnik suvni foizdagi miqdori orqali baholanishi, texnik suvlardan oqilona foydalanishni baholash, foydalanish koeffitsienti orqali baholanishi haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Metal, qora metallurgiya, texnik, rangli metallurgiya, koeffitsient.

Metal ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan texnik suvlarni foydalanish qobiliyatini qo'yidagi uchta ko'rsatgich bilan ifodalash mumkin. Suv ta'minoti tizimini butkul texnik tugallanganligi foydalaniladigan aylanma texnik suvni foizdagi miqdori orqali baholash mumkin, ya'ni:

Rob=

Respublikamiz metal ishlab chiqarish korxonalarida aylanma suv ta'minoti tizimini qo'llanilish darajasi 70-90%, qora metallurgiya -75% va rangli metallurgiyada 55%ni tashkil etadi.

Texnik suvlardan (manbalardan olinadigan) oqilona foydalanishni baholash, foydalanish koeffitsienti orqali baholanadi, ya'ni:

Ki=

Respublikamizda haqiqiy texnik suvdan foydalanish koeffitsienti o'rtacha 0,12 oladi, korxonalarda 0,7÷0,8 ni tashkil qiladi.

Qaytmaydigan va yo'qolgan suv uchun

$$R_{pot} = \frac{Q_{ист} + Q_{пр} + Q_{б}}{Q_{б}}$$

Metal ishlab chiqarish korxonalarida qullaniladigan texnik suvlarni bosim bilan etkazib berish uchun nasoslar o'rnatilgan nasos stansiyalari xizmat qiladi. Va ular ishlatilish sohasiga hamda umumiy tizimdagi o'rniga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

birinchi bosqichli nasos stansisi – to'g'ridan-to'g'ri manbadan (daryo, ko'l, suv omborlari va artezian quduqlaridan) suvni olib tozalash inshootlariga uzatib beradi; ikkinchi bosqich nasos stansiyasi –tozalash inshootidan (toza suv havuzidan keyin) suvni olib metal ishlab chiqarish korxonasiga o'zatadi.

Aylanma suv ta'minoti tizimida metal ishlab chiqarish korxonasida qo'llaniladigan suvni sovutish jarayonidan keyin (sovutgichlarda, gradirnlarda va sepuvchi basseynlarda) to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarga yuboriladi. Sanoat korxonalarida qo'llanilgan (foydalanib bo'lgan) suvlarni va xo'jadik maishiy suvlarni oqovaga tashlash uchun dekan (kanalizatsiya) nasos stansiyalari qo'llaniladi.

Ishonchliligi bo'yicha nasos stansiyalarini quyidagi toifalarga bo'lish mumkin: birinchi toifa – suvni uzatishda umuman o'zilish bo'lmasligi kerak; ikkinchi toifa-qisqa muddatli

uzatish bo'lishi mumkin. SHu xoldaki xizmat ko'rsatuvchi personal zaxira nasoslarni ishga tushurish jarayonida; uchunchi toifa – tizim yoki nasoslar inqirozga uchraganda suvni suvni uzatish uzilib qolishi mumkin.

Nasos stansiyalari boshqarilish bo'yicha qo'lda, avtomatik va yarim avtomatik (distansionli) bo'lishi mumkin. Nasos stansiyalarini suv berish qobiliyati quyidagicha topiladi, ya'ni

$$Q = \frac{\alpha * Q_{k-k}}{T} \text{ m}^3/\text{soat}$$

Bu erda, Q_{k-k} - kunlik maksimal suv sarfi, $\text{m}^3/\text{k-k}$; α - tozalash inshotini o'z yumushlariga sarf bo'ladigan suvni ifodalovchi koeffitsient (1,03-1,05);

T - nasos stansiyasini ishlash vaqti (24 soat).

Nasos stansiyalarida suruvchi vaqti bosimli quvurlar uchun pulat qo'llaniladi. Rasmda suruvchi va bosimli quvurlarning ishga tushurish tizimlari ko'rsatilgan.